

Yong'oq po'chog'i

Sartaroshxonaning ayollar bo'limida shu qadar ko'p ediki, bir tola soch tashlansa ham yerga tushmasdi. Ish qaynagandan qaynagan, birov sochini bo'yatyapti, birov qirqtiryapti, birov jingalak qildirish bilan ovora, yana birov boshini yuvayati. Yonma-yon qo'yilgan kreslodan baravariga ikki yosh juvon turishdi.

-Volida, bu senmisan?

-Vo-oy, Xolida, o'zingizmisan?

-Vuy, ochilib ketganligini qara-ya, tanimay qolibman.

-Sen bo'lsang o'sha-o'sha – hecham o'zgarmabsan.

-Qayoqda deysan, o'rtoqjon, xir uch yil hazilakam gapmi?

Dugonalar sartaroshxonadan qo'shday uchib chiqishdi va yana suhbatga berilishdi.

-Yo'q-yo'q, o'rtoq degan ham shunaqa bo'ldimi, biror marta yo'qlay demanding –a? Turmush –turmushim bilan ham qiziqmading. Axir, oz birga o'qidik,-

Deya Volida dugonasidan biroz gina qilgan bo'ldi.

-Axir, o'zim ikki yil chet elda ishlab qaytdim.

-Ering kim?

-Erim jarroh. Bir o'g'il, bir qizimiz bor. O'zingdan gapir.

-Mening erim muhandis. Bitta qizimiz bor, shu bittasini ham zo'rg'a eplayapman.

-Shuni aytgin. Tag'in ham ishim tuzuk. Direktorimiz juda ajoyib odam, kuni bilan bir joyda mixlanib o'tirish shart emas, deydi.

-Ming qatla shukurki, bu masala bizda ham yaxshi. Ishga bormaslikning iloji yo'q-ku-ya, ammo ko'pincha...

-Tushunarli-tushunarli, - uning gapini bo'ldi Xolida, keyin engashib, ma'nodor jilmaygach, sochiga ishora qildi. – Mana, hozir ham bir obyektida ish bajarib yuribman.

-Men bo'lsam, - dugonasiga hamohang jilmayib javob berdi Volida, - kutubxonadaman.

-Ikkilasi miriqib kulishdi.

-Ishxonang uyingga yaqinmi, o'zi?

-Ha, atigi ikki qadam, o'zingizniki-chi?

-Metroda bir bekat. Erim sening topganingga muhtoj emasman, yaxshisi ishingni tashlab, o'yda o'tir, deya xol jonimga qo'ymaydi. Yo'q, deyman men, Baribir ishimni tashlamayman.

-Voy tavba, sening erring ham huddi mening erimga o'xshar ekan-a?

-Ishlaganga nima yetsin, Volida. Axir ishlash – borib ko'ngil yozib kelish degan gap. Uyda o'tirgandan nima foyda? Ertadan kechgacha oshxonadan boshing chiqmaydi. Ostona hatlab ko'chaga chiqolmay qolasan?

-Shuni ayt, uyda o'tirganingdan keyin sartaroshxonaga boorish, magazine aylanish qayoqda? – gapini ilib ketdi Volida. – Axir uyingdan aptekaga yoki kutubxonaga ketdim, deb chiqib ketolmayapsan-ku? Yo'q, maza qilib ishlab yurganga nima yetsin... Jamoalaring qanaqa?

-Rostini aytsam, o'zim ham bilmayman. Axir ishlayotganimga atigi bir yarim yil bo'ldi, faqat direktorimiz bilan ko'zoynak taqib yuradigan kassirimizni tanimayman. O'shalarining ham otini bilmayman, esimdan chiqibdi.

-Bizning kassirimiz ham juda yoqimtoy juvon. Boshqa xodimlarni men ham yaxshi bilmayman. Mening ishga o'tganimda yaqinda bir yil bo'ladi. Faqat ro'paramda o'tiradigan xodim juda orasta, tartibli odam ekanini payqadim.

Qachon qarasang yozuv stoli chinnidek top-toza.

-Yoshmi?

-Bunisini bilmayman. Men uni biror marta ko'rmaganman. Direktor unga tushdan keyin kelishga ruxsat beribdi. Men bo'lsam, ertalabdan peshingacha ishlayman, keyin obyektga jo'nayman. Obyektning qanaqaligini ko'rib turibsan. Bir ishdan keyin qolib, ro'paramda o'tiradigan odamning kimligini bilib olay deymanu, hech fursat bo'lmayapti.

-Sen baxtli ekansan. Mening sherigim esa juda farosatsiz odam. Hali uni ko'rganim yo'q. U ertalab, men esa tushdan keyin ishga kelaman. Bir hafsala qilib, ertaroq kelib, tanishib qo'ymoqchi bo'lamanu, hech vaqt bo'lmayapti. O'zimga uchrashib, qanaqa uyatsiz, befahm odamsan, kuni bilan yong'oq chaqqaning-chaqqan, nega po'chog'ini tozalab ketmaysan, degim keladi. Biror marta po'chog'ini yig'ishtirib ketmaydi-ya, nega endi men tozalashim kerak?

Xolida birdan to'xtab qoldi, keyin iymenib so'radi:

-Nima? Nima deding? Yong'oq chaqadi, dedingmi?

Ha, ha, yong'oq chaqadi.-Volida o'rtog'ining xicholatli ovozi payqamay davom etdi.-Har kuni xonaga kirishim bilan razm solaman, hech kim yo'q, jim-jit. Ammo stol ustida yong'oq po'chog'l sochilib yotgan bo'ladi. Bilmayman, erkak kishimi u yoki ayolmi? Har holda erkak bo'lsa kerak. Ayol kishi bunchalik kaltafahm bo'lishi mumkin emas.

-Volida, qaysi idorada ishlaysan? –Bo'g'iq ovozda so'radi Xolida.

-Mana bu binoda, - dedi u o'n olti qavatli binoni ko'rsatib.

-Qirq yettinchi xonada emasmi?

-Qayoqdan bilding? – Volida Xolidaga hayrotomuz qarab qoldi. – Senga nima bo'ldi o'zi? G'alati qarayapsan?

-Xudo haqqi, meni kechir, Volida, - dedi Xolida ovozi titrab. – Agar sen ekanligini bilganimda, albatta yig'ishtirib ketgan bo'lardim, - u cho'ntagidan bir siqim yong'oq olib, Volidaga uzatdi...

Bir muddat dugonalar indamay bir-biriga tikilib qolishdi, keyin qah-qah otib yuborishdi.

Kulgudan zo'rg'a o'ziga kelgan Volida soatiga qaradi.

-Voy, ish tugashiga ham bir soat qolibdi. Hech bo'lmasa, borib bir ko'rinish berib qo'yay. Se ham borasanmi?

-Yo'q, ertalab yo'qlamagan yozdirib qo'yganman...

Ozarbayjonchadan N.Ergasheva tarjimasi
Maqola Kitob dunyosi gazetasidan olindi.